

14 yekun 2022 yil

Paxtaobod tumani

Bundan buyon "ETKAZIB BERUVCHI" deb ataluvchi "THE FUTURE" MCHJ nomidan ustav asosida ishlaydigan Pirmatov ORTIQMIRZAYEV JAVOXIRMIRZO TOXIRJON O'G'LI bir tomondan va bundan buyon "BUYURTMACHI" deb atalgan MTB nomidan ustavda asosiy faoliyatda Abdullaeva Saidaxon Jo'rayevna boshqa tomondan quyidagi tarkibda;

### 1. Shartnoma predmeti

1.1 "Yetkazib beruvchi" o'ziga tegishli bo'lgan va kelishilgan quyidagi mollarni taklif etadi,

"Buyurtmachi" esa ushbu maxsulotlarni qabul qilib olib, hisob kitob qiladi

№	Maxsulot nomi	O'lchov birligi	Miqdori	Summasi	Jami summasi
1	Piyoz	Kg	13530	5050	68 326 500
2					
	<b>JAMI SUMMASI</b>				<b>68 326 500</b>

Shartnomaning umumiy summasi 68 326 500,00 (Oltmish sakkiz million uch yuz yigirma olti ming besh) so'mni tashkil qiladi.

### 2. YETKAZIB BERISH VA HISOB-KITOBLAR SHARTLARI

2.1. "Buyurtmachi" mazkur shartnomani g'aznachilik bo'linmasida ro'yxatga olingan kundan boshlab 5 kalendar kuni ichida qonunchilikka muvofiq, shartnomaning umumiy summasidan 30% miqdorida oldindan to'lash majburiyatini oladi, qolgan 70% ni tovarni olgandan so'ng 10 kalendar ish kuni ichida qabul qilish-topshirish dalolatnomasi, hisob-faktura asosida to'laydi.

2.2. "Yetkazib beruvchi" avans mablag'lari yetkazib beruvchining tegishli hisob varag'iga kelib tushgan vaqtdan boshlab 5 kalendar kuni ichida tovarni yetkazib berish majburiyatini oladi.

2.3. "Yetkazib beruvchi" amakdagi GOST ua muvofiq tovarni yetkazib berishi shart.

2.4. "Buyurtmachi" tovarlarni qabul qilishda "Yetkazib beruvchi" ishtirokida olinayotgan tovarlarni to'liqligini va sifatini savdolarni o'tkazish to'g'risidahi elonda (buyurtmanomada) ko'zda tutilgan boshqa talablarga muvofiqligini tekshirishi shart.

2.5. Agar mazkur shartnoma bilan boshqa xolatlar ko'zda tutilmagan bo'lsa, tovarlarni tashish va tushirish bo'yicha barcha xarajatlar yetkazib beruvchi hisobidan amalga oshiriladi.

2.6. Buyurtmachi roziligiga tovar muddatidan oldin yetkazib berilishi mumkin.

2.7. yetkazib berilgan tovar bevosita buyurtmachining masul xodimlari tomonidan dalolatnoma bo'yicha qabul qilinadi va yetkazib berilgan tovarlarning miqdori, uning sifati ko'rsatiladi.

2.8. Mazkur shartnomada ko'zda tutilgan tovarlarni yetkazib berish, mazkur shartnomaga muvofiq amalga oshiriladi.

### 3. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1. Buyurtmachining:

Yetkazib beruvchidan shartnomani bajarish uchun zarur bo'lgan davlat standartlari va boshqa meyoriy xujjatlar bilan taminlanishini talab qiladi;

Buyurtmachi hisobidan tovarlar tahib keltirilganda, yetkazib beruvchidan transport xarajatlarini qoplab berishni talab qilish, agar mazkur kontraktning shartlarida boshqa boshqa xollar belgilanmagan bo'lsa;

Yetkazib beruvchi jpylashtirikgan buyurtmanomaga ko'ra mazkur kontraktga muvofiq, tegishli sifat, assortiment bo'yicha tovarlarni yetkazib berishni talab qilish;

Sifatsiz tovar yetkazib berilganda o'z ixtiyoriga ko'ra quyidagilardan birini talab qilish:



- tegishli sifatdagi shunga o'xshash tovar bilan almashtirib berish;
- kamchiliklarni beg'raz bartaraf etish;
- yetkazib beruvchidan mazkur shartnoma shartlarini bajarmaganligi yoki tegishli darajada bajarmaganligi natijasida yetkazilgan zararni qoplab berishni talab qilish.

### 3.2. Buyurtmachining majburiyatlari:

- mazkur shartnomaga muvofiq o'zining joylashtirilgan buyurtmasi bo'yicha yetkazib berilgan tovarlarni qabul qilish;
- tovarlarning qiymatini mazkur shartnomada belgilangan narxda va muddatda to'lash .

### 3.3. Yetkazib beruvchi quyidagi huqularga ega:

- "Buyurtmachidan" oldindan to'lov va yetkazib berilgan tovarlar uchun yakuniy hisob-kitoblarni O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida ko'zda tutilgan tartibida va xajimlarda amalga oshirishni talab qilish.

- Buyurtmachidan joylashtirilgan buyurtmaga muvofiq, yetkazib berilgan tovarlarni asossiz ravishda qabul qilmaslik natijasida yetkazilgan zararlarni qoplab berishni talab qilish.

### 3.4. yetkazib beruvchining majburiyatlari:

- Buyurtmachiga tovarlarni mazkur shartnomaga muvofiq belgilangan muddatda, miqdorda va sifatda yetkazib berish;

- agar tovarlarni yetkazib berish jarayonida yetkazib beruvchi shartnoma shartlari va meyorlaridan yoki O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidan chetga chiqishiga yo'l qo'yilgan xollarda buyurtmachining talabi bo'yicha 10 kun muddat ichida barcha aniqlangan kamchiliklarni beg'raz bartaraf etish.

3.5. Mazkur shartnoma belgilangan tartibda mazkur shartnoma shartlari va talablari va O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga ijro etilishi shart.

3.6. Tomonlar o'z zimmlariga olgan barcha majburiyatlarning ijrosini taminlangan taqdirda shartnoma bajarilgan hisoblanadi.

## 4. TOMONLARNING JAVOBGARLIKLARI

4.1. Tovarlar tanlab olmaslik, shuningdek yetkazib beruvchi shartnomada belgilangan muddatda (davrda) ularni yetkazib berganda tovarlarni olishni asossiz ravishda rad etganlik uchun sotib oluvchi yetkazib beruvchiga tanlab olinmagan (o'z muddatida olinmagan) tovarlar qiymatining 5 foizi miqdorida, tez buziladigan bo'yicha esa -10 foiz miqdorida jarima to'laydi.

Tovarlar tanlab olinmagan (olish asossiz rad etilgan) xollarda, yetkazib beruvchi jarima undurishdan tashqari, ushbu tovarlar mavjudligining kafolatlarini taqdim etgan xolda, tanlab olinmagan (o'z muddatida olinmagan) tovarlar qiymati to'lanishini talab qilishga xaqlidir.

4.2. To'lov talabnomasi akseptini asossiz ravishda butunlay yoki qisman rad etganlik, shuningdek hisob-kitobning boshqa shakllarda tovarlar xaqini to'lashdan bosh tortganlik (bank muassasasiga to'lov topshiriqnomasini taqdim etmaganlik, chek bermaganlik, akkreditivni taqdim etmaganlik va xokazo) uchu buyurtmachi maxsulot yetkazib beruvchiga o'zi tanlashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 15 foizi miqdorida jarima to'laydi.

Yetkazib berilgan tovarlar xaqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun buyurtmachi yetkazib beruvchiga o'tkazib yuborilgan xar bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0.4 foiz miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

4.3. Agar yetkazib berilgan tovarlar sifati, assortimenti va navi bo'yicha standartlar, texnik shartlar, namunalarga (etalonlarga) qonun xujjatlarida yoki iqtisodiy shartnomasida belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa, sotib oluvchi (buyurtmachi) tovarlarni qabul qilish xamda ularning xaqini to'lashni rad etib, etkazib beruvchidan sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirib



olishga, agar tovarlar xaqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, to'langan summani belgilangan tartibda qaytarish talab qilishga xaqlidir. Sifati, assortimenti navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar yetkazib berganlik uchun jarima yetkazib beruvchidan ekseptiz tartibda undirib olinadi.

4.4. Tovarlarini yetkazib berish muddatlari kechiktirib yuborilgan, to'liq yetkazib berilmagan, Tovar yetkazib beruvchi sotib oluvchiga (buyurtmachiga) kechiktirilgan xar bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0.5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan tovarlar, bajarilmagan bilar yoki ko'rsatilmagan xizmarlar baxosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim. Penya to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarifni tovarlar yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to'liq yetkazib bermaslik, oqibatda yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

4.5. Marka qo'yilmagan yoki lozim darajada markirovka qilinmagan tovarlarni, shuningdek idishsiz yoki o'ralmagan tovarlarni yoxud tegishli idishga joylanmagan yoki lozim darajada o'ralmagan tovarlarni yetkazib berganlik yetkazib beruvchi sotib oluvchiga (buyurtmachiga) bunday tovarlar qiymatining 5 foizi miqdorida jarima to'laydi. Tovarlar qabul qilingandan yana jo'natilishi yoki saqlanishi kerak bo'lgan xollarda sotib oluvchi (buyurtmachi) jarima undurishdan tashqari, o'z kuchi bilan, lekin yetkazib beruvchi hisobidan tovarlarni o'rashga va idishlarga joylashga, yoxud bir shaxardagi yetkazib beruvchidan tovarlarni o'rab berish yoki idishlarga joylab berishni talab qilishga xaqlidir.

## **5. NIZOLARNI XAL ETISH TARTIBI**

5.1. Kelishmovchiliklarning va baxslar kelib xiqqan taqdirda, tomonlar, roidaga ko'ra, mustaqil ravishda ularni sudgacha xal etish choralarini ko'radilar.

5.2. Tomonlar kelishmovchilik va baxslarni xal etish uxhun bevosita iqtisodiy sudiga murojat qilishga xaqlidir.

5.3. Tomonlar iqtisodiy sudiga murojat qilgan taqdirda, sed ishi davogar joylashgan manzildagi iqtisodiy sedida ko'rib chiqiladi.

## **6. FORS-MAJOR**

6.1. Ushbu shartnomaga asosan majburiyatlarni bajarmasligi xolatlarini yengib o'lmaydigan kuchlar (fors-major) xolatlari natijasida vujudga kelganda tomonlar o'z majburiyatlarini bajarmaslikdan qisman yoki to'liq ozod bo'ladilar.

6.2 Yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) xolatlariga tomonlarning irodasi va faoliyatiga bog'liq bo'lmagan tabiat xodisalari (zilzila, ko'chki, bo'ron, va boshqalar) yoki ijtimoiy-iqtisodiy xolatlar (urush xolati, qamal, davlat manfaatlari ko'zlab import va eksportni taqiqlash va boshqalar) sababli yuzaga kelgan sharoitlarda tomonlarga qabul qilingan majburiyatlarni bajarish imkonini bermaydigan favqulodda, oldini olib bo'lmaydigan va kutilmagan xolatlar kiradi.

6.3 Shartnoma tomonlaridan qaysi biri uchun majburiyatlarni yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) xolatlari sababli bajarmaslik malum bo'lsa, darxol ikkinchi tomonga bu xaqda 10 kun ichida ushbu xolatlar xarakati sababini bilan taqdim etish lozim.

6.4. Shartnomaga asosan majburiyatlarni ijro qilish muddati ushbu yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) xolatlar davom etish muddatiga qadar uzaytiriladi. Agar yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) tasiri 60 reylay ortiqroq davom qilsa, tomonlar tashabbusiga binoan shartnoma bekor qilinishi mumkin.

## **7. BOSHQA SHARTLAR**

7.1. Ushbu shartnomada tomonlarning ko'zda tutilmagan o'zaro munosabatlari munosabatlari O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan tartibga solinadi.

## **8. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI**

8.1. Mazkur shartnoma g'aznachilik bo'linmalaridan ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabrgacha amal qiladi.



8.2. Shartnomaning amal qilish muddati bir tomonning tashabbusiga ko'ra oy (bir) davomida boshqa tomonga yozma ariza topshirgan kundan boshlab, barcha o'zaro hisob-kitoblar tugaganligi meddatidan avval to'tatilishi mumkin.

8.3. Shartnomaning amal qilish muddatini tugashi tomonlarni javobgarlikdan ozod qilmaydi.

### 9. YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI

Yetkazib beruvchi	Buyurtmachi
<p>Tashkilot nomi <u>"THE FUTURE" MCHJ</u> Manzil: <u>Paxtaobod tumani Gulobod MFY</u> Telefon: STIR kodi: <u>306533012</u> OKXN: _____ X/R 2020800005096112001 <b>Bank: <u>Mirkreditbank Paxtaobod tuman filiali</u></b> MFO:00078</p> <p>Raxbar (director):  J.Ortiqmirzayev (imzo) M.O': </p>	<p>Tashkilot nomi: <b>MAKTABGACHA TA'LIM BO'LIMI</b> Manzil: Paxtaobod sh A/Temur ko'chasi Telefon: _____ STIR kodi: <u>305157124</u> OKXN:92400 Buyurtmachining shaxsiy g'azna hisob varag'i: Shxr 100022860032327091100251029 Shxr 400522860032327091100251036 Paxtaobod tuman G'aznachilik bo'linmasi (G'X): <u>23402000300100001010</u> Markaziy Bank: <u>XKKM Toshkent shaxar</u> MFO:00014 Raxbar (direktor):  S.Abdullayeva M.O': </p>

## YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

IQ6821070553

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: Mahsulot etkazib berish to'g'risida
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Paxtaobod tuman maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan 09.12.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Paxtaobod tumani  
yuridik markazi  
bosh yuristkonsulti:**



**B.R.SATTAROV**

14.12.2022